

20-Mart, 2025-yil

**O‘QUVCHILARGA “AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATI”
MAVZUSINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH**

Toshkent davlat stomatologiya instituti akademik litseyi

Asem Aristanbekova Polatovna

Respublika musiqa va san’at texnikumi

G’aniyeva Iroda

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Amir Temur va temuriylar davlati”ni o‘rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni ko‘zda tutadi. Dars jarayonida interaktiv metodlar, klaster, aqliy hujum, “Baliq skeleti”, “Insert” kabi texnologiyalar orqali o‘quvchilarning mustaqil fitkrlashi, tarixiy voqealarni tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, guruhlarda ishlash, muammoli savollarga javob topish va taqdimotlar qilish orqali o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtirish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratiladi. Mavzuni shu uslubda o‘qitish tarix faniga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, shaxsiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Amir Temur, Temuriylar davlati, Tarixiy shaxs, Harbiy islohotlar, Davlat boshqaruvi, Ilm-fan va madaniyat, Tarixiy meros, Pedagogik texnologiyalar

Vatanga fidoyi farzandlarni tarbiyalashda tarix fanining ahamiyati katta. Zero, shu fan orqali bola qalbiga Vatan tuyg`usi, mardlik, jasorat, qahramonlar ibrati va olivjanoblik g`oyasi kirib boradi.

Yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar tufayli barcha, jumladan, ijtimoiy - iqtisodiy sohalarda, shuningdek, ta’lim tizimida ham keskin o‘zgarishlar yuz bermoqda. O‘zbekistonda ilm-fan, texnika va texnologiyasining so‘nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta’lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

Bizning avlodimiz, bilimli, o‘tmishning har qanday illatlaridan ozod bo‘lgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberallashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. O‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o`stirishni, ularning chuqur, bilim olishni ta’minlash, tarixiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda tarix fanlarini oqqitish muhim hisoblanadi.

Yozma manbalar mustaqillik yillarda o‘zbek tiliga tarjima qilingan va ular asosida yangi kitoblar, darsliklar yaratilgan.

Bo‘riboy Ahmedovning «O‘zbekiston tarixi manbalari», «O‘zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari» nomli qo‘llanmalarida Amir Temur davri tarixiga oid manbalar yoritilgan.

To‘ra Saidqulovning «O‘rta Osiyo xalqlari tarixinining tarixshunosligidan lavhalar» nomli o‘quv qo‘llanmasida O‘rta Osiyo tarixiga oid, shuningdek Amir Temur tarixiga oid manbalar yoritilgan.

20-Mart, 2025-yil

a) Betlar bo‘yicha berilgan atamalar- tarixiy termin va atamalar har bir reja yoritilayotganda ajratib berilgan. Bu darslikning yutuqidir. Biz yana ularga qo‘sishimcha ravishda “tushunchalar tahlili” texnologiyasi bo‘yicha keyingi bobda atamalar va ularning lug`aviy ma’nosini aniqlash bo‘yicha ish olib bordik.

b) Matn oxirida qavs ichidagi so‘zlarni tushuntirish

Metodik apparat

1. Savollar va topshiriqlar tuzilgan, ularning o‘zlashtirishdagi roli va ahamiyatin kkatta bo‘lib, ammo ularni yanada muammoli topshiriqlar shaklida berilishi yanada yaxshi samara bergen bo‘lardi.

Illyustratsiyalar

a) Fotosuratlar va suratlari reproduktsiyalar – darslikda Amir Temurning Toshkentdagagi suvoriy xaykali, Bibixonim masjidining fotosurati, Amir Temur qo‘sishinlarining hindistondagi qal’ani olishi miniatyurasi, Ahmad Yassaviy maqbarasidagi Doshqozon, Mirzo Ulug`bekning rasmi, Amir Temur va temuriylar davri mis va kumush tangalari, Ulug`bek rasadxonasi, Kamoliddin Behzod va Alisher Navoiy rasmlari berilgan. Ushbu rasmlarga ko‘proq izoh berilsa, ayniqsa Amir Temur davrida buyuk inshootlar haqida qiziqarli ma'lumotlar berilishi maqsadga muvofiq bo‘lardi.

b) Karta sxemalar- darslikda mavzuga doir yo‘q. Ammo janglar va ularning karta sxemalari berilishi maqsadga muvofiq edi.

d) Xaritalar - Amir Temur davlatining xaritasi berilgan.

e) Sxemalar - darslikda berilmagan. Amir Temurning shajarasi, qurdirgan bog`larining sxemalari berilishi lozim edi. Sababi o‘quvchilarda eng ko‘p savol shu bo‘yicha bo‘ladi.

Amir Temur davriga oid juda ko‘p tarixiy yozma manbalar bo‘lib, ularning ko‘pchiligi o‘zbek tiliga tarjima qilib nashrdan chiqib keng ommaga havola etilgan. Ammo ushbu manbalarni o‘quvchilar tushunishi qiyin bo‘lib, bu vazifani o‘qituvchi bajarib, darsning samarasini oshirishi va o‘quvchilarni qiziqtirishi, mavzuga ishonchini oshirishi mumkin. Ushbu tarixiy manbalardagi ma'lumotlardan o‘quvchi quyidagi metodlardan foydalanishi mumkin:

Mavzuga oid lavhalarni o‘qib berishi;

Mavzuga oid stsenariylarni tayyorlab rolli o‘yin shaklida o‘tkazishi;

Dars jarayonida o‘tilgan mavzuni mutsustahkamlash qismida kichik guruhlarga qo‘sishimcha o‘qish uchun, hamkorlikda ishlash texnologiyasi orqali singdirishi;

Loyiha texnologiyasi yordamida mavzuga oid o‘sishimcha ma'lumotlarni topib, o‘rganib kelishga ma'lum bir muddatga tayyorlash uchun topshiriq sifatida berishi mumkin.

Jumladan, tarixiy manbalardan ma'lumot (Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” asaridan)

Mustaqillik yillarda Amir Temur shaxsiga nisbatan adolatning qaror topishini tarixni haqqoniy o‘rganishdagi yutuq sifatida aytishimiz mumkin. Amir Temur hayoti va faoliyatining tarixchi olimlar tomonidan o‘rganilishi va amalga oshirilgan tadqiqotlar yangi, avvalgiga nisbatan yuqori bosqichga ko`tarilganini ko`rsatadi.

20-Mart, 2025-yil

Tarix o`qituvchisi keyingi yillardagi temurshunoslikda erishilgan yutuqlar, keyingi yillarda nashr etilgan tadqiqotlardan keng foydalanishi va shu asnoda mavzuni o`qitishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berishi maqsadga muvofiq.

- Amir Temuring tarixiy xizmati sifatida sultanat boshqaruv tizimida asrlar davomida shakllanib kelgan an'anaviy, mahalliy davlatchilik ijroiya tizimidagi boshqaruvning mumtoz shakllari qayta tiklanishi;

- Vatanimiz tarixida Amir Temur sultanatining xalqaro munosabatlari tarixi va diplomatiya munosabatlari tarixining eng yorqin sahifasi bo`lgani, bunda diplomatiya etikeltariga qat'iy amal qilingani, Sohibqironning esa mazkur sohadagi mahorati, jahon tarixidagi xizmatlaridan biri sifatida dunyo xaritasiga siyosiy, geografik o`zgarishlar kiritib, yagona siyosiy va iqtisodiy hudud yuzaga keltirgani va diplomatik munosabatlarni rivojlantirgan;

- Amir Temur - madaniyat va san'at taraqqiyotidagi muhim o`rni va homiyligini ochib berish;

- sovet davrida Amir Temurga “vayronkor” deb berilgan bir yoqlama, salbiy fikrlar asossiz ekanligi, aksincha Sohibqironning o`zga yurtlardagi obodonchilikka bo`lgan e'tibori, uning bunyodkorlik, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatidagi faoliyatiga yuqori, faktologik va ilmiy asosli baho berish maqsadga muvofiqli.

Shu kungacha mavzuni barcha ta'lif muassasalarida o`qitishda umumiylit bo`lib, o`ziga xos xususiyatlar inobatga olinmagan edi. Bugungi kunda ta'lif jarayonida samaradorlikka erishish va qiziqishlari hamda ilmiy asosda oqqitish masalalari muhim hisoblanadi. Xusan, metodik qo`llanmada tarix fanlarini o`qitishda DTS va o`quv dasturidagi talablardan kelib chiqqan holda o`quvchilarining qiziqishlari mazmun va mohiyatini ochib berish bo`yicha metodik tavsiyalar berildi.

O`qitishning qiziqarli va samarali bo`lishini ta'minlash maqsadida qo`shimcha manba va adabiyotlar, hujjatlardan foydalanish tavsiya etildi. Albatta, bu masala tarix fani o`qituvchilari gardaniga og`ir vazifa yuklaydi. Ammo shu asnoda tarix fanini o`rganishga qiziqishini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Amir Temur Ko`ragon. Zafar yo`li. Tarjimai hol /Nashrga tayyorlovchi, tarjimon, so`z boshi va izohlar muallifi Ashraf Ahmad. – T.: Nur, 1992. – 112 b.

2. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) /So`z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni U.Uvatov tayyorlagan. Mas'ul muharrir A.O`rinboev. – T.: Mehnat, 1992. (1-kitob. – 328 b; 2-kitob. – 192 b.)

3. Klavixo, Rui Gonsales de. Samarqanddagagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403 – 1406) /Ruschadan O.Tog`aev tarjiması //San'at. – T, 1989. – № 9-12; 1990. – № 1-10.

20-Mart, 2025-yil

4. Muiniddin Natanziy. Sohibqiron hayotidan lavhalar (Muntaxab ut-tavorixi Muiniy) /Forschadan G`ulom Karim tarjimasi, Muhammad Ali so`zboshisi //Jahon adabiyoti. – T., 2006. – № 3. – B. 3-52; 2006. – № 4. – B. 3-42.
5. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma /Fors tilidan o`giruvchi Yunusxon Hakimjonov. Tarjimani qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir A.O`rinboev. Izohlar va lug`atlarni tuzuvchi H.Karomatov (geografik nomlar izohi O.Bo`rievnik). Hofizi Abruning “Zafarnoma”ga yozgan “Zayl”i – (“Illova”)ni forsiydan o`giruvchi va izohlarni tuzuvchi O.Bo`riev. – T.: O`zbekiston, 1996. – 528 b.
6. Temur tuzuklari /Forschadan A.Sog`uniy va H.Karomatov tarjimasi. So`z boshi va mas'ul muharrir Muhammad Ali. – T.: Sharq, 2005.
7. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma /Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy tarjimasi. So`z boshi, tabdil, izohlar va ko`rsatkich mualliflari va nashrga tayyorlovchilar: A.Ahmad., H.Bobobekov. – T.: Sharq, 1997. – 254 b.

